



Xodjayev Sobir Djumayevich,
*“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti bo‘lim boshlig‘i,
 sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori*

O‘ZBEKISTONDA NIKOH VA OILAVIY AJRALISHLAR TENDENSIYASI

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekistonda 2010-yildan joriy yilgacha oila, nikoh va oilaviy ajralishlar tendensiyasi mavjud statistik ma’lumotlar asosida tahlil qilingan. Shu bilan birga, oilaviy ajralishlar sabablari sotsiologik nuqtayi nazardan hududlar kesimida qiyosiy tadqiq etilgan.

Tayanch so‘zlar: oila, nikoh, oilaviy ajralishlar, promille, ijtimoiy xizmat, ijtimoiy ish, doimiy aholi, o‘rtacha aholi, tanlanma tadqiqot, statistik tahlil.

Аннотация. В данной статье анализируется динамика семьи, количество браков и семейных разводов в Узбекистане с 2010 по текущий год на основе статистических данных. При этом причины семейных разводов сравнительно исследуются в разрезе регионов с социологической точки зрения.

Ключевые слова: семья, брак, семейные разводы, promille, социальная служба, социальная работа, постоянное население, среднее население, выборочное исследование, статистический анализ.

Annotation. This article analyzes the trend of the family, the number of marriages and family divorces in Uzbekistan from 2010 to the current year based on available statistical data. At the same time, the causes of family divorces are comparatively investigated in the cross-section of regions from a sociological point of view.

Key words: family, marriage, family divorces, promille, social service, social work, permanent population, average population, sample study, statistical analysis.

Kirish. Har bir insonning dastlabki ijtimoiylashuvi oilada boshlanadi va salmoqli qismi shu dargohda amalga oshiriladi. Keyinchalik ham kishining muayyan voyaga yetishi, o‘z navbatida, yangi oilaning barpo bo‘lishiga olib keladi va ijtimoiylashuv jarayoni tom ma’noda yangicha sotsial xususiyatlar kasb eta boshlaydi. Shu sababli oila ijtimoiy, iqtisodiy va ma’naviy jihatdan butun bo‘lsagina, uning barqarorligi mustahkam bo‘ladi va jamiyatda ma’naviy sog‘lom avlod vakillari yetishib chiqadi. Mustahkam oilalardan va barqaror avloddan tashkil topgan jamiyatda sog‘lom muhit shakllanadi.

Iqtisodiy integratsiya, globalizatsiya, fan-texnika va texnologiyalar shiddat bilan rivojlanib borayotgan axborotlashgan davrda qonuniy nikoh asosidagi oilani saqlab qolish va undagi ijtimoiy-ma’naviy muhitning barqarorligini ta’minlash muhim vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Jamiyatning ijtimoiy barqarorligi va totuvligi mamlakat taraqqiyoti hamda istiqbolini belgilovchi asosiy omildir. Oilalarni qo‘llab-quvvatlash va mustahkamligini ta’minlash har bir mamlakat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Biz uchun muqaddas bo‘lgan oila

asoslarini yanada mustahkamlash, xonadonlarda tinchlik-xotirjamlik, ahillik va o'zaro hurmat muhitini yaratish, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni aniq mazmun bilan to'ldirishdan iborat bo'lmog'i zarur¹.

Hozirda O'zbekistonda oilalar barqarorligini ta'minlash, er-xotin o'rtasidagi ajrashishlar sonini kamaytirish, oilani saqlab qolish imkonini beradigan ko'plab tashkiliy-huquqiy, ijtimoiy-siyosiy asoslar yaratilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida oila jamiyatning asosiy bo'g'ini ekanligi hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqi belgilab qo'yilgan. Oila kodeksi va boshqa qonun hujjatlari nikoh qurish shartlari va tartibi, oilaviy munosabatlarni tartibga solish, oilaviy ajrimlarning oldini olish nafaqat er-xotin, ayni chog'da voyaga yetmagan farzandlarning ham huquq va manfaatlarini himoya qilish, shu bilan birgalikda, ajrimlar jarayonini tartibga solish va tomonlar manfaatlarini nazorat qilishda muhim ahamiyatga molik jihatlarni inobatga olgan.

Mamlakat Prezidentining 2022-yil 7-martdagi 87-sonli "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida² hamda 2022-yil 1-mart kuni bo'lib o'tgan videoselektor yig'ilishida oilaviy ajralishlarning oldini olish masalasiga alohida e'tibor qaratilgani bejiz emas.

Ajralish arafasida turgan oilalarni yarashtirish, yuzaga kelgan nizolarni tinch yo'l bilan bartaraf etish borasida fuqarolik ishlari bo'yicha sudlar hamda har bir mahalla fuqarolar yig'inlari va boshqa mutasaddi organlar tomonidan zarur chora-tadbirlar amalga oshirilishi yo'lga qo'yilgan. Ayrim davlat organlari oilalarni moddiy yordam bilan ta'minlash masalasi bilan shug'ullansa (masalan, ijtimoiy ta'minot muassasalari), boshqalari er-xotinning huquq va majburiyatlarini amalga oshirishga ko'maklashish (FHDYO), bola huquqlarini ta'minlash (vasiylik va homiylik organlari, xalq ta'limi tuzilmalari) faoliyatini amalga oshirish majburiyatini o'z zimmasiga olgan. Olib borilayotgan sa'y-harakatlarga qaramay, er-

xotin o'rtasidagi ajrashishlar sonining doimiy o'sish dinamikasi mazkur masalani nafaqat alohida oilalar, ulardagi individlarning o'zaro munosabatlari (mikro darajada) hamda davlat organlarining sa'y-harakati, balki jamiyatda kechuvchi makro darajadagi o'zgarishlar nuqtayi nazaridan ham ilmiy baholash lozimligini ko'rsatmoqda.

Mamlakatdagi oila institutining rivojlanish holatini baholashda aholi soni, nikohlar va ajrimlar tendensiyasini baholash muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston statistika qo'mitasining so'nggi o'n ikki yil davomida bergan ma'lumotlari hamda qator tadqiqot natijalari asosida aholining o'sishi, qayd etilgan nikohlar va oilaviy ajralishlarning miqdori asosida ayrim ilmiy xulosalarni qayd etish mumkin.

O'zbekiston statistika qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra, 2010–2022-yillar mobaynida O'zbekistonda aholi soni tabiiy ravishda muntazam o'sib bormoqda. Jumladan, 2010-yildan 2022-yilgacha aholi soni 25,2 foizga o'sdi. Mana shu o'tgan yilgi davr davomida mamlakatda aholining o'rtacha o'sishi 589,42 tani tashkil etdi. Bu esa 188,7 promilleni tashkil etdi.

Yillar	Doimiy aholi soni jami (mln.)	Aholining o'rtacha yillik o'sishi (ming)	O'sish (promille)
2010-yil	28 001,4	496,4	177,3
2011-yil	29 123,4	1122 ¹	385,3
2012-yil	29 555,4	432	146,2
2013-yil	29 993,5	438,1	146,1
2014-yil	30 492,8	499,3	163,7
2015-yil	31 022,5	529,7	170,7
2016-yil	31 575,3	571,4	181,0
2017-yil	32 120,5	545,2	169,7
2018-yil	32 656,7	536,7	164,3
2019-yil	33 255,5	598,8	180,1
2020-yil	33 905,2	649,7	191,6
2021-yil	34 558,9	653,7	189,2
O'rtacha o'sish		589,42	188,7

Nikohlar dinamikasi

O'zbekiston statistika qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra, 2010–2022-yillar mobaynida O'zbekistonda qayd etilgan nikohlar miqdori bir maromda kechmagan, balki o'sish va kamayish tendensiyasini namoyon qilgan. Jumladan, 2011-yildan (287 793) 2013-yilga (304 854) qadar nikohlar soni sezilarli darajada o'sgan bo'lsa,

¹ <https://kun.uz/news/2017/01/16/mirzieev-eslarni-aellarni-dardi-bilan-sugullanmaapmiz?q=%2Fnews%2F2017%2F01%2F16%2Fmirzieev-eslarni-aellarni-dardi-bilan-sugullanmaapmiz>

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 7 мартдаги 87-сонли “Оила ва хотин-қизларни тизимли қўллаб-қувватлашга доир ишларни янада жадаллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони. <https://lex.uz/docs/5899498>

2013-yildan 2016-yilgacha (275 048) muntazam kamayish tendensiyasini namoyon qilgan. 2017-yilda esa (306 197) oila qurgan juftliklar soni yuqori o'sish holatini namoyon qilib, keyingi ikki yilda sezilarli o'zgarishlarsiz miqdorini saqlab qolgan (1-rasm).



1-rasm. O'zbekistonda 2010–2022-yillarda qayd etilgan nikohlar soni

Yuqorida keltirilgan 1-rasmda 2020-yilda nikoh qurish holatining keskin kamayishini ko'rish mumkin. Mazkur holatning asosiy sababi sifatida 2020-yilda sodir bo'lgan pandemiya holati, shuningdek, qo'shimcha omil sifatida 2019-yilda amalga oshirilgan nikoh qurish yoshi borasidagi qonunchilikning o'zgartirilishi, ya'ni nikoh yoshining tenglashtirilishida (erkaklar va ayollar uchun 18 yosh) namoyon bo'lmoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda 22 foiz ayollar 20 yoshgacha bo'lgan davrda turmush quradi. Shubhasiz, nikoh yoshidagi o'zgarishlar mazkur statistik ko'rsatkichni ma'lum darajada qisqartiradi va ayollarning reproduktiv salomatligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. 2020-yil (296 934) mobaynida nikoh qurish tendensiyasi pasayish holatini namoyon qilib, qariyb o'n yil oldingi ko'rsatkichga tushdi. Shundan shahar aholisi (141 474) va qishloq aholisi (155 276) o'rtasida nikoh holatlari deyarli teng ekani qayd etilgan. Respublika hududlari bo'yicha 2020-yilda eng ko'p nikoh holatlari Farg'ona viloyatiga to'g'ri kelgan (34 066).

2021-yil hisobiga ko'ra, O'zbekistonda 305 082 ta rasmiy nikoh qayd etilgan³ bo'lib, bu ko'rsatkich 2020-yilga nisbatan 4,5 foizga o'sish bo'lganini ko'rsatgan bo'lsa-da, 2019-yilgi ko'rsatkich darajasiga chiqqan olmadi. Buni bir tomondan, pandemiya, ikkinchi tomondan,

³ Почти 40 тысяч браков распалось за прошлый год.
<https://uznews.uz/posts/52813>


qonunchilikdagi yoshga doir o'zgarishlar ta'sirini namoyon qilmoqda (1-rasm).

Oilaviy ajrimlar dinamikasi

2010–2022-yillar davomida O'zbekistonda qayd etilgan ajrimlar miqdorini o'rganish natijasida oilaviy ajrimlar sonining muntazam ravishda u yoki bu darajada o'sish holatini namoyon qilganini ko'rish mumkin. Jumladan, agar 2010-yilda 17 794 ta juftlik ajrashgan bo'lsa, 2018-yilda bu miqdor 32 326 taga oshgani kuzatilgan.

Qayd etish joizki, 2019-yilgacha mamlakatda ajralishlar soni muntazam oshib borgan. 2018-yilda davlat siyosati doirasida ajrimlar sonini kamaytirish va oilalarni mustahkamlashga qaratilgan e'tibor hamda mahalliy organlarning amaliy sa'y-harakatlari natijasida 2019-yilda ajrimlar sonining biroz pasayishi kuzatildi.

2020-yilda qayd etilgan ajrimlar sonining sezilarli kamayishi pandemiya davomida sud, FHDY va boshqa davlat organlari faoliyatining cheklangani bilan ham bog'liq (2-rasm).



2-rasm. 2010–2022-yillar bo'yicha ajrimlar soni

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2021-yil davomida O'zbekistonda qayd etilgan ajrimlar sonining keskin ortishi va qariyb 40 mingga yetgani pandemiya davomida sud va FHDY organlari faoliyati cheklanishi barobarida ko'rilmagan ishlarning mazkur yil davomida ko'rib chiqilgani bilan ham izohlanishi mumkin. Bundan tashqari, 2020-yilda aksariyat juftliklarning ko'p vaqt davomida uyda qolishi natijasida yuzaga kelgan tushunmovchiliklar, emotsional charchash, ayrim holatlarda ish va daromad borasida muammolarning paydo bo'lishi ajrimlar sonining ortishiga sabab bo'lgan.

2021-yilda eng ko'p ajrimlar miqdori hududlar kesimida Toshkent shahri (5,6 ming) va Farg'ona viloyatida (4,3 ming) kuzatilgan bo'lsa-da, har ming kishiga hisoblaganda, oilaviy ajrimlarning eng yuqori koeffitsiyenti Toshkent shahrida (2,0 promille) va Sirdaryo viloyatida (1,6 promille) aniqlandi.


Shu bilan birgalikda, 2022-yilning birinchi yarmida O'zbekistonda 28 507 juftlik ajrashgani qayd etilgan. Quyida hududlar bo'yicha 2022-yilning yetti oyi davomida qayd etilgan oilaviy ajralishlar soni bo'yicha batafsil ma'lumotlar keltirilgan (3-rasm):



3-rasm. 2022-yilning birinchi yarmida O'zbekistonda ajrashish uchun hujjat topshirganlar soni

2022-yilning birinchi yarmida ham poytaxtda (3432 ta) ajralishlar soni yuqori bo'lganini ko'rish mumkin. Keyingi o'rinlarda Samarqand (3041) hamda Toshkent (2971) viloyatlari turipti. Yil oxiriga qadar ajrimlar sonining o'sish tendensiyasi shu maromda davom etsa, yil yakunlari bo'yicha 50–60 ming atrofida bo'lishi borasida ilmiy bashorat (prognoz) qilish mumkin.

Hududlar kesimida qayd etilgan ajrimlar miqdorini har bir hududdagi o'rtacha aholi soni nuqtayi nazaridan baholash, ya'ni **promille** ko'rsatkichini aniqlash orqali har bir hududdagi ajrimlar ko'lamini borasida xulosa berish mumkin. Shunga ko'ra, **3-rasmda Toshkent shahri (1,22), Sirdaryo viloyati (1,2) va Toshkent viloyatida (1,02)** ajrimlar soni har ming kishiga nisbatan yuqori ekanini hamda mazkur hududlarda oilaning buzilishiga sabab bo'luvchi omillarni tahlil qilish, muammoning yechimlarini aniqlash dolzarbligini ko'rsatmoqda (3-rasm).



3-rasm. Hududlardagi oilaviy ajrimlarning promille (har ming kishiga nisbatan) ko'rsatkichi (2022-yil iyul holatiga)

Ma'lumki, Toshkent shahri poytaxt shahar bo'lgani uchun ham mamlakatimizdagi urbanizatsiya darajasi nisbatan yuqoriligi bilan ajralib turadi. Undan tashqari, mazkur hududda ayollarning moddiy jihatdan o'zlarini ta'minlash imkoniyatlari kengligini, ularning ma'lumotlilik darajasi va huquqlarini bilishi yuqoriligini ko'rish mumkin. Shu bilan birgalikda, turli millat vakillarining ko'pligi va fikrlar xilma-xilligi holatlari o'rin olgan. Joylashuvi nuqtayi nazaridan Toshkent shahri va Toshkent viloyati yaqin bo'lgani uchun bu ikki hududdagi aholi o'rtasida kundalik migratsiya va assimilyatsiya jarayoni yuqoriligi kuzatiladi. Bu holat ikki hududdagi turmush tarzining o'xshashligini belgilab beradi.

Hududlar kesimida Sirdaryo viloyati aholisi soni jihatdan garchi so'nggi o'rinlardan joy olgan bo'lsa-da, ajrimlar sonining promilledagi ulushi qariyb Toshkent shahridagi kabi yuqoriligi xavotirli holat hisoblanadi hamda bu ko'rsatkich ushbu hududga jiddiy e'tibor qaratilishi lozimligini ko'rsatmoqda. Mazkur hududda yashovchi aholining oilaviy ajralish sabablari sifatida aholisi orasidagi madaniyatlar xilma-xilligi, iqtisodiy barqarorlik, oilaviy qadriyatlarining tanazzulga uchrashi kabi omillarni ko'rsatish lozim.

Keyingi tadqiqotlar davomida yuqorida keltirilgan uchta hududdagi (Toshkent shahri, Sirdaryo va Toshkent viloyati) sanab o'tilgan xususiyatlarni inobatga olgan holda o'rganish maqsadga muvofiq.

Xulosa. O'zbekistonda nikoh va ajrimlar tendensiyasini statistik ma'lumotlar hamda

kuzatishlar asosida o'rganish natijasida quyidagi xulosalarni keltirish mumkin:

2010–2022-yillar davomida O'zbekiston aholisi soni muntazam ravishda o'sish holatini namoyon qilmoqda.

1. O'rganilgan davr mobaynida qayd qilingan nikohlar soni ayrim o'sish va kamayishlarni hisobga olmaganda, ko'pincha bir maromda davom etmoqda. Ajrimlar soni esa ko'p hollarda muntazam o'sish tendensiyasini namoyon qilgan yoki qilmoqda.

2. O'rganilgan davr mobaynida aynan 2020-yilda ajrimlar va nikoh qurish holatlari miqdorining ma'lum darajada pasayishi pandemiya cheklovlari va qonunchilikdagi nikoh yoshi borasidagi o'zgarishlar oqibati sifatida izohlanmoqda.

3. Oilaviy munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilikni takomillashtirish jamiyatdagi oilaviy munosabatlarning yaxshilanishiga olib keladi (nikoh yoshi borasida amalga oshirilgan qonunchilikdagi o'zgartirishlar misolida).

4. Oilaviy ajralishlar sonining ko'pligi hamda o'sish tendensiyasi nafaqat yirik va rivojlangan shaharlarda, balki madaniy xilma-xilligi yuqori va iqtisodiy barqarorligi farovon bo'lmagan hududlarda ham kuzatilishi mumkin (Toshkent shahri va Sirdaryo viloyati misolida).

5. Har bir hududning o'ziga xos oilaviy ajralish sabablari mavjudligi bois ularni psixologik, ma'naviy-madaniy, iqtisodiy hamda salomatlik darajasi nuqtayi nazaridan mikro va makro darajada o'rganish maqsadga muvofiq.

6. Oilaviy ajralishlarning oldini olish va bartaraf etish uchun ularning sabablarini aniqlash maqsadida muntazam tadqiqotlar olib borish muhim

ahamiyatga ega. Buning uchun quyidagilarni amalga oshirish taklif etiladi:

– oilaviy ajralishlar sonini kamaytirish, oilalarning butunligi va barqarorligini saqlash borasidagi tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni va amalga oshirilayotgan islohotlarni kuchaytirish;

– nikoh va ajrimlar holatini o'rganish metodologiyasini takomillashtirish, mos usullarni tanlash hamda omillar klassifikatsiyasi nuqtayi nazaridan yondashish;

– oilalar barqarorligini ta'minlash tizimi organlari faoliyatini muvofiqlashtirish, hamkorligini ta'minlash maqsadida mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining oila masalalari bo'yicha komissiyasi, ichki ishlar organlari, Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi, sud, prokuratura, Byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasi, Xalq ta'limi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi kabi tuzilmalarning oilaviy munosabatlar sohasida olib boradigan ishlarini o'zaro muvofiqlashtirish;

– aholining ijtimoiy-siyosiy ongini shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslarini, usul va vositalarini takomillashtirish orqali ijtimoiy sohada olib borilayotgan ta'lim-tarbiya va targ'ibot-tashviqot ishlarini sifatijihatdan yaxshilash, jamoatchilikning namunali oila borasidagi fikrlarini shakllantirish;

– oilalarga ijtimoiy xizmat ko'rsatish sohasini takomillashtirish, ijtimoiy himoya va qo'llab-quvvatlashga muhtoj bo'lgan oilalarni aniqlashning yangicha usul va mexanizmlarini ishlab chiqish hamda joriy etish;

– mahallalarda faoliyat olib borayotgan xotin-qizlar faollarining oilalar bilan ishlash salohiyatini Ijtimoiy ish yo'nalishi doirasidagi amaliy bilim va malakalar bilan oshirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 7 мартдаги 87-сонли “Оила ва хотин-қизларни тизимли қўллаб-қувватлашга доир ишларни янада жадаллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони. <https://lex.uz/docs/5899498>.
2. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажигимизни мард ва олийжаноб халкимиз билан бирга қурамыз. — Тошкент: Ўзбекистон, 2017. — Б. 44.
3. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/demography-2>
4. <https://kun.uz/news/2017/01/16/mirzиеev-eslarni-aellarni-dardi-bilan-sugullanmaapmiz?q=%2Fnews%2F2017%2F01%2F16%2Fmirzиеev-eslarni-aellarni-dardi-bilan-sugullanmaapmiz>
5. Число разводов в Узбекистане выросло, более чем на 40%. <https://fergana.media/news/124320/>
6. Ташкентцы разводятся чаще, чем другие жители Узбекистана – статистика. 26.07.22. <https://repost.uz/mi-s-toboy-ne-para#>